

**BOLALAR ORASIDA SEMIZLIKNING IQTISODIY OQIBATLARI:
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIGA VA JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI****Sh.S.Safaraliyeva, G.B.Begimqulova**

Kirish. XXI asrda semizlik global sog'liq muammosi sifatida e'tirof etilib, ayniqsa bolalar orasidagi tarqalishi jiddiy xavotir uyg'otmoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha 340 milliondan ortiq 5–19 yoshli bola ortiqcha vaznga ega. Semizlik nafaqat individual sog'liq muammosi, balki davlat iqtisodiyotiga, sog'liqni saqlash tizimiga, ishchi kuchi samaradorligiga va jamiyat farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi omildir. Ayniqsa, erta yoshda boshlangan semizlik hayot davomida surunkali kasalliklar xavfini oshirib, davolanish xarajatlarini bir necha barobar ko'paytiradi.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda semizlikning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish, sog'liqni saqlash tizimidagi moliyaviy yukni baholash, uzoq muddatli iqtisodiy yo'qotishlar va jamiyat rivojiga ta'sirini aniqlash.

Materiallar va usullar .Tahlil uchun JSST, OECD, The Lancet, World Obesity Federation kabi nufuzli manbalardagi statistik ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, 2018–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston, AQSh, Germaniya, Hindiston va Turkiyadagi bolalar semizligi bilan bog'liq sog'liqni saqlash xarajatlari taqqoslandi. Iqtisodiy baholashda to'g'ridan-to'g'ri (tibbiy xarajatlar) va bilvosita (ish kuchi yo'qotilishi, nogironlik, ijtimoiy yordam) ko'rsatkichlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalar .AQShda har yili bolalar semizligiga bog'liq sog'liqni saqlash xarajatlari 14 milliard dollarni tashkil etadi (CDC, 2022). O'zbekistonda semizlik bilan bog'liq 2-toifa diabet, gipertenziya, yurak-qon tomir kasalliklari holatlari ortib borayotgani, 5–14 yoshdagi bolalar orasida ortiqcha vazn ko'rsatkichi 15–17% oralig'ida ekani qayd etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi, 2023).

Semizlik sababli maktabga borish ko'rsatkichlari pasaygan, bu esa uzoq muddatda ta'lim sifati va bandlik darajasiga ta'sir qilmoqda. Harvard School of Public Health ma'lumotiga ko'ra, semiz bolalarning 70% i kattaligida ham semizlik bilan yashaydi va bu ularda ishga yaroqlilik darajasini 30–40% kamaytiradi. Yevropa Ittifoqida bolalar semizligi tufayli mehnat samaradorligi yo'qotilishi yiliga 500 ming ish kunidan

ortiqni tashkil etadi .Turkiyada olib borilgan iqtisodiy modellashtirish shuni ko'rsatadiki, semizlik darajasini 5%ga kamaytirish orqali davlat byudjetiga yillik 2,5 milliard liraga yaqin tejash mumkin.

Xulosa. Bolalar orasida semizlik nafaqat sog'liq muammosi, balki global va milliy iqtisodiyotga tahdid soluvchi omilga aylangan. Bu holat sog'liqni saqlash tizimida ortiqcha xarajatlar, kasalliklarning erta boshlanishi, mehnatga layoqatsizlik va nogironlik darajasining ortishi, ijtimoiy yordamga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun davlatlar darajasida semizlik profilaktikasiga sarmoya kiritish, maktab ovqatlanishini sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va iqtisodiy siyosatda bu muammoni hisobga olish strategik zaruriyatdir. Bolalikdagi semizlikka qarshi kurash – kelajak avlod sog'lomligi va davlat barqarorligining asosiy omillaridan biridir.